



ISSN 2181-1008
DOI 10.26739/2181-1008



ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

НАУЧНОЕ ПЕРИОДИЧЕСКОЕ ИЗДАНИЕ



ТОМ 3, НОМЕР 1

2023



**SAMARQAND VETERINARIYA
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

VOLUME 3, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА | BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK

№1 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1008-2023-1>

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

А.С. Даминов
Узбекистан

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Х.Б. Юнусов
Узбекистан

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

А.Р. Курбонов
Узбекистан

МАЪСУЛ КОТИБ | ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ | RESPONSIBLE SECRETARY:

Н. Б. Дилмуродов, Самарканд, Узбекистан

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:
РЕДАКЦИОННЫЙ КОЛЛЕГИЯ:
EDITORIAL BOARD:

ТАҲРИРИЯТ КЕНГАШИ:
РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:
EDITORIAL BOARD:

Б. Т. НОРКОБИЛОВ
Ташкент, Узбекистан

Ш. А. ДЖАББАРОВ
Ташкент, Узбекистан

Б. А. ЭЛМУРАДОВ,
Ташкент, Узбекистан

Н. А. БОБОКУЛОВ,
Ташкент, Узбекистан

А. А. НУРМАТОВ,
Ташкент, Узбекистан

Б. Б. БАКИРОВ
Самарканд, Узбекистан

Х. Б. НИЁЗОВ,
Ташкент, Узбекистан

Р. Б. ДАВЛАТОВ,
Ташкент, Узбекистан

Э. С. ШАПТАКОВ
Ташкент, Узбекистан

Х. С. САЛИМОВ
Самарканд, Узбекистан

М. А. РУЗИМУРАДОВ
Ташкент, Узбекистан

Д. А. АЗИМОВ
Ташкент, Узбекистан

А. И. ЯТУСЕВИЧ
Минск, Республика Беларусь

Д. А. ДЕВРИШОВ
Москва, Российская Федерация

Ю. А. ЮЛДАШБОЕВ
Москва, Российская Федерация

Д. Н. ФЕДОТОВ
Минск, Республика Беларусь

К. Н. НОРБОЕВ
Самарканд, Узбекистан

С. Ю. ЮСУПОВ
Самарканд, Узбекистан

Х. А. ХАМДАМОВ
Ташкент, Узбекистан

А. А. ЭЛМУРАДОВ
Самарканд, Узбекистан

Б. Д. НАРЗИЕВ
Самарканд, Узбекистан

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Дилмуродов Н.Б., Ниёзов Ҳ.Б., Пардаева Ш.А., Мирзаев С.М., Бозоров Қ. СИГИРЛАРДА ПОДОДЕРМАТИТ ЖАРАЁНЛАРИНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРУВЧИ ОМИЛЛАР ВА КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	5
2. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Yusupov Azamat Rustam o'g'li OTLARDA SAKRASH BO'G'IMINING ASEPTIK YALIG'LANISHINI DAVOLASH.....	11
3. Ўрмонов Абдурасул Хасанович, Таштемиров Равшанбек Матлюбович СПОРТ ОТЛАРИДА МИОЗИТЛАРНИНГ КЕЧИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ДАВОЛАШ.....	16
4. Ниёзов Ҳаким Бақойвич, Абдиев Салоҳиддин Буранович ТУҒИШДАН КЕЙИНГИ ЭНДОМЕТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН СИГИРЛАРНИ ТУРЛИ УСУЛЛАР БИЛАН ДАВОЛАШДА УЛАРНИНГ КЛИНИК – ФИЗИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	20
5. Djumanov Sobir Murodovich, Rashidov Bekjon SIGIRLARDA VOLA TASHLASHLARNI SABABLARI VA OLDINI OLISH.....	27
6. Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich, Chinmurodov Jahongir To'lqinjon o'gli SPORT OTLARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I JAROHATLARI ETIOLOGIASI, KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI.....	32
7. Даминов Асадулло, Боймуродов Хусниддин, Суяров Султон, Тошқузиёв Баҳодиржон ЗАРАФШОН ДАРЁСИ ЎРТА ОҚИМИ СУВ ЭКОТИЗИМЛАРИДА LYMNAEIDAE (RAFINESQUE, 1815) ОЙЛАСИ МОЛЛЮСКАЛАРИНИ ТАРҚАЛИШИ ВА УЛАРНИ ГЕЛЬМИНТОЗЛАРНИНГ ОРАЛИҚ ХЎЖАЙИНИ СИФАТИДАГИ ЎРНИ.....	37
8. Раҷамуродов Зайнитдин Туробович, Ахроров Маъруф Насимжонович ЯНГИ ТЎҒИЛГАН ҚЎЗИЛАРНИ ТИРИК ВАЗНИ, МУТЛОҚ ВА КУНЛИК ЎСИШИНИНГ ЁШГА ОИД ДИНАМИКАСИ ЎРГАНИШ.....	42
9. Яхяев Бахтиёр Садуллаевич ВЛИЯНИЕ КОМПЛЕКСНОЙ КОРМОВОЙ ДОБАВКИ НА ПЕРЕВАРИМОСТЬ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ ПРИ ОТКОРМЕ КАРАКУЛЬСКИХ БАРАНЧИКОВ.....	48
10. Ходжаева Насиба, Акбарова Гулирухсор, Джурабаева Дилафруз AZOLLA CAROLINIANANINING MORFOBIOLOGIK ХУСУСИЯТЛАРИ.....	54
11. Qurbonova Zarnigor, Fayziyeva Sitara, Norboyev Qurbon BUZOQLAR DISPEPSIYASINING ANTINATAL SABABLARI.....	60
12. Norboyev.Q.N., Safarov. Sh.I. GOLSHTIN ZOTLI SOG'IN SIGIRLAR KETOZINING KELIB CHIQISH SABABLARI.....	65
13. Safarov M.B., Turdiqulov S. BIOLOGIK FAOL MODDALARDAN AYRIM VITAMINLARNING SOG'IN SIGIRLAR FIZIOLOGIK KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI (Adabiyotlar tahlili asosida).....	69
14. Djumanov Sobir Murodovich, Imomaliyev Shohruh SIGIRLARDA BACHADON CHIQISHI SABABLARI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH.....	73
15. Hamroqulov N.Sh., Ergashev J. TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA GIPOVITAMINOZLARNING DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI.....	78



UDK:636.2

**Qurbonova Zarnigor Saydullo qizi
Fayziyeva Sitora Faxriddinovna
Norboyev Qurbon Norboyevich
SDVMCHBU**

BUZOQLAR DISPEPSIYASINING ANTINATAL SABABLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7816594>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buzoqlarda dispepsiya kasalligining neonatal sabablari to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Dispepsiya, neonatal, fermentodefitsit, autoimmun, immunodefitsit va alimentar, kallogen, komponentlar, metobolizm, zoogigiyenik-sanitariya talablar, intoksikatsiya, disbakterioz, diareya.

**Курбонова Зарнигор Сайдулло кизи
Файзиева Ситора Фахриддиновна
Норбоев Курбон Норбоевич
СГУВМЖБ**

АНТИНАТАЛЬНЫЕ ПРИЧИНЫ ДИСПЕПСИИ ТЕЛЯТ

АННОТАЦИЯ

В данной статье изложена информация о неонатальных причинах диспепсии у телят.

Ключевые слова: диспепсия, неонатальная, ферментодефицитная, аутоиммунная, иммунодефицитная и алиментарная, каллогенная, компоненты, метоболизм, зоогигиенно-санитарные требования, интоксикация, дисбактериоз, диарея.

**Qurbonova Zarnigor Saydullo qizi
Fayziyeva Sitora Faxriddinovna
Norboyev Qurbon Norboyevich
SDVMCHBU**

ANTINATAL COUSES OF CALVES DYSPEPSIA

ABSTRACT

This article describes the data on the neonatal causes of dyspepsia in calves.

Keywords: dyspepsia, neonatal, enzymodeficitis, autoimmune, immunodeficitis and alimentary, collagen, components, metabolism, zoohygienic-sanitary requirements, intoxication, dysbacteriosis, diarrhea.

Mamlakatimiz aholisining chorvachilik maxsulotlariga bo'lgan talabini yaxshiroq qondirish Davlatimiz agrar siyosatining ustivor yo'nalishi hisoblanadi. Bu sohada veterinariya fani va amaliyoti oldiga fermer xo'jaliklariga qarashli chorva mollarining kasalliklariga qarshi kurashish, ularning mahsuldorligini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi dolzarb vazifalar qo'yildi.

Bu muammolarni samarali hal etishga katta to'sqinlik qilayotgan hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari orasida buzoqlarning dispepsiya kasalligi salmoqli o'rinni egallaydi.

Adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kungacha Respublikamizning qoramolchilik xo'jaliklari sharoitida buzoqlar orasida dispepsiya kasalligining tarqalishi, etiologiyasi, patogenezi, qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlar, o'z vaqtida aniqlash hamda kasallikni davolash va oldini olish chora-tadbirlari to'liq o'rganilmagan.

Respublikamizning qoramolchilik xo'jaliklarida buzoq olish asosan qish va bahor davriga to'g'ri kelib, bu davrda buzoqlarni sog'lom o'stirish, turli kasalliklariga qarshi kurashish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu kasalliklar orasida buzoqlar dispepsiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Qoramolchilik shirkat xo'jaliklarida yangi tug'ilgan buzoqlar dispepsiyasi ko'p tarqalgan bo'lib, kasallikning etiopatogenezi, davolash va oldini olishning samarali usullari to'g'risida yetarlicha miqdorda adabiyot ma'lumotlari mavjud bo'lishiga qaramasdan Respublikamizning qoramolchilik xo'jaliklari sharoitida ayniqsa naslli qoramolchilik shirkat xo'jaliklarida kasallikni sabablari, diagnostikasi, davolash va oldini olishga oid ma'lumotlarni deyarli uchratmadik.

Bo'g'oz sigirlarda dispanser tekshirishlar o'tkazish bilan shunday xulosaga keldikki, buzoqlarning dispepsiya bilan kasallanishida bo'g'oz sigirlarda uchraydigan modda almashinuvi buzilishi kasalliklari, oziqalar to'yimliliigi, ratsion tarkibidagi oziqaviy va biologik faol moddalar, makro- va mikroelementlarga nisbatan organizmning fiziologik ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi kasallikning neonatal sabablari hisoblanadi. Kasallik asosan buzoqlar hayotining birinchi uch kunligida qayd etiladi [5].

Dispepsiyaning asosiy antenatal sabablari bo'g'oz hayvonlarni oziqlantirish qoidalarining buzilishi oqibatida paydo bo'ladigan modda almashinuvi buzilishlari, bo'g'oz hayvon organizmiga zaharli moddalarning tushishi va stresslar bo'lib hisoblanadi [6].

Mavzuning dolzarbligi. Sog'indan chiqarilgan sigirlarda bo'g'ozlikning oxirgi ikki oyi davridagi fiziologik imkoniyatlari va ehtiyojlarini to'lig'icha hisobga olmasdan turib sog'lom va hayotchanligi yuqori bo'lgan buzoqlarni yetishtirib bo'lmaydi. Gipotrofik holatda tug'ilgan buzoqlar dispepsiya kasalligi bilan ko'proq kasallanadi.

Yangi tug'ilgan buzoqlar orasida dispepsiya kasalligi keng tarqalgan bo'lib ayrim xo'jaliklarda kasallanish 46% ga va o'lim darajasi 32 foizgacha yetadi [3;7]. Buzoqlar dispepsiyasidan iqtisodiy zarar ularning o'sishdan qolishi, organizm rezistentligining pasayishi, o'limi, veterinariya sarf - xarajatlari va kelgusida yosh hayvonlarni podani to'ldirish uchun yaroqsiz bo'lishidan kelib chiqadi.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda qoramolchilik fermer xo'jaliklariga chetdan keltirilayotgan yuqori mahsuldor zotli sigirlarda dispepsiyaning etiologik omillari yaxshi o'rganilmagan

Dispepsiyaning kelib chiqishida alimentar omillarning ahamiyatini o'rganish, kasallikni oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda veterinariya fani va amaliyoti oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Pastdarg'om tumani qoramolchilik fermer xo'jaliklarida yangi tug'ilgan buzoqlar orasida dispepsiya kasalligining tarqalishi va iqtisodiy zarari va sabablarini o'rganish ishning maqsadini tashkil etdi.

Tadqiqotlar ob'ekti va uslubiyatlari. Pastdarg'om tumanidagi "Jo'ra" fermer xo'jaligi qoramolchilik fermasida 2022 yil yanvar - aprel oylarida sog'indan chiqarilgan bo'g'oz sigirlarda dispanser tekshirishlar o'tkazish bilan ularning saqlanishi va oziqlantirilishi, oziqa ratsionlarining tarkibi va to'yimliliigi tahlil qilinib, buzoqlar dispepsiyasining sabablari o'rganildi.

Sigirlarning ratsioni tarkibi oziq birligiga, hazmlanuvchi protein, qand, karotin, kalsiy, anorganik fosfarga tekshirildi. Tajribadagi 10 bosh sog'indan chiqarilgan sigirlar klinik jihatdan

tekshirilib, ularning ishtahasi, teri va teri qoplamasi, ko'zga ko'rinadigan shilliq pardalar, limfa tugunlari tekshirildi. Hayvonlarning tana harorati, bir minutdagi nafas va puls soni, 2 minutdagi katta qorin devori harakati soni tekshirildi. Tajribadagi sigirlarning qonida laborator tekshirish orqali eritrotsitlar soni (Goryayev sanoq to'rida), gemoglobin (Gemoglobin-sianidli usul), glyukoza (glyukometr), qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usuli) miqdori aniqlandi.

Tajriba ostidagi sigirlardan tug'ilgan buzoqlarning tana vazni, fiziologik jihatdan rivojlanganligi, tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasi, uviz sutini qabul qilishi, shilliq pardalar rangi, tezlash chastotasi, tezakning konsistensiyasi va rangi aniqlandi.

Sigirlar ratsiondagi oziqalar to'yimligi, tarkibidagi hazmlanuvchi protein, qand, karotin, kalsiy, fosfor, kletchatka miqdorlarini aniqlashda adabiyot ma'lumotlari [13]. veterinariya laboratoriyalari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar. Sigirlar ratsioni silos-senaj-konsentrat tipida bo'lib, ratsion tarkibi makka silosi, beda pichani, senaj, paxta sheluxasi va paxta shrotidan tashkil topgan, uning umumiy to'yimligi 8,10 oziq birligini tashkil etadi. Oziqlantirish me'yorlari bilan solishtirilganda ratsion to'yimligining 2,30 oziq birligiga kamligi, hazmlanuvchi proteinning 230 g, qandning - 399g, karotinning - 220mg, fosforning - 16,2 grammga tanqisligi va kalsiyning - 4,6 g va kletchatkaning 886 grammga ortiqchaligi aniqlandi. Sigirlar organizmi ehtiyojlarining qondirilishi to'yimli moddalarga nisbatan 77,4 foizni, hazmlanuvchi protein -75,24%, qand - 52,8%, karotin - 48,35%, fosfor -67,6%, kalsiy - 105,0%, va kletchatkaga nisbatan 120,0 foizni tashkil etdi.

Ratsionning uglevodli qismi qandni tanqisligi va kletchatkaning oziqlantirish me'yorlariga nisbatan ortiqchaligi bilan taavsiflandi. Shuningdek, oqsilli va energetik qismlarining ham bir-biriga nomutanosibliigi aniqlandi, ya'ni ratsiondagi qand-oqsil nisbati 0,8:1 o'rniga 0,58 ni tashkil etdi.

Ratsionning makroelementli qismi kalsiyning ortiqchaligi va fosforning tanqisligi oqibatida ular o'zaro nisbatlarining nomutanosibliigi bilan xarakterlandi. Ya'ni fosforning kalsiyga nisbati 2:0,4ni (me'yor - 2,0:1) tashkil etdi.

Jadval 5

Sigirlarning ratsion tarkibi

Oziqa turlari	Miqdori (kg)	Oziq birligi	Hazml. proteinm(g)	Karotin (mg)	Qand (g)	Kletchatka (g)	Kalsiy (g)	Fosfor (g)	Cu (mg)	Co (mg)	Zn (mg)	I (mg)	Mn (mg)
Maka silosi	8	2,16	195	66	118	1460	32	16,0	21,6	0,98	54	1,7	128
Beda pichani	4	1,64	153	106	208	1105	42,4	11,6	13,6	0,24	39,2	0,6	54,6
Senaj	3	1,48	154	34	53	240	4,8	3,0	19,2	4,4	112	0,48	46,6
Paxta sheluxasi	4	1,14	80	-	68	1860	8,4	2,6	1,2	0,03	6,6	0,03	18,4
Paxta shroti	2	1,68	198	-	-	345	7	4,6	13,0	0,54	48	1,04	80,6
Jami:		8,10	780	206	449	5010	94,6	37,8	70,5	6,25	271,6	3,93	363,8
Me'yor		10,4	1010	426	850	4110	90	50	50	6	300	5,5	400
Farqi ±		- 2,30	-230	-220	-401	+900	+4,6	-12,2	+20,5	+0,25	-28,4	1,57	-36,2

Sog'indan chiqarilgan 10 bosh sigirlarda tekshirishlarning boshida nafas soni bir minutda o'rtacha 29,0 martani tashkil etgan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib, bu ko'rsatkich o'rtacha 33,7

martaga teng bo'ldi, ya'ni nafas soni o'rtacha 4,7 martaga tezlashganligi aniqlandi. Pulsning bir minutdagi soni o'rtacha 71,8 martani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich tajribalar oxiriga kelib o'rtacha 74,8 martani tashkil etdi, yoki tajribalar boshidagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 martaga ko'paygan.

Katta qorin devori harakatining 2 minutdagi o'rtacha qisqarishi ham tajribalar oxiriga kelib o'rtacha 3,3 ni tashkil etdi, ya'ni tajribalar boshidagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 martaga pasayganligi qayd etildi.

Hayvonlarda nafas sonining o'rtacha 4,7 martaga tezlashishi hayvonlar ratsionining tarkibida uglevodli oziqalarning yetishmasligi, kalsiy-fosfor nisbatining buzilganligi va shu asosda gipoksiyaning kelib chiqqanligi tufayli organizmda kislorodga bo'lgan talabning oshishi bilan izohlaymiz. Hayvonlarda bo'g'ozlikning oxirgi ikki oyi davomida organizmdagi suyak to'qimalarining distrofiyasi belgisi sifatida oxirgi dum umurtqalarning so'rilishi kabi xarakterli o'zgarishlar kelib chiqqanligi aniqlandi. Ayrim hayvonlarda oshqozon oldi bo'lmalari gipotoniyaning yuzaga kelishi ularning bir joyda saqlanishi, quyosh nurining yetishmasligi va kletchatkaga boy qiyin hazm bo'ladigan, to'yimliliigi kam oziqalarning berilishi bilan bog'liq deb izohlaymiz.

Sog'indan chiqarilgan sigirlarda tajribalarning oxiriga kelib, dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan qondagi eritrotsitlar sonining dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha - 0,10 mln/mkl, gemoglobinning - 1,1 g/l, glyukoza - 0,06±0,05 mmol/l, umumiy oqsil miqdorining - 0,7 g/l, ga kamayishi aniqlandi. Qonda gipogemoglobinemiya, gipoproteinemiya, gipofosforemiya va ishqoriy zaqiralarning kamayishi, ya'ni atsidoz holati borligini, sigirlarda bug'ozlik davrining oxiriga kelib organizmning to'yimli moddalar, vitaminlar va mineral moddalarga nisbatan bo'lgan ehtiyojlarini qondirilmasligi, moddalar almashinuvining izdan chiqishi bilan izohlaymiz.

Tajribadagi sigirlar qonining morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari.

Guruhlar		Eritrotsit mln/mkl	Gemoglobin, g/l	Glyukoza, mmol/l	Umumiy oqsil, g/l
1 tajriba	A	4,96±1,6	86,4±2,10	2,06±0,03	65,6±1,38
	B	5,88±1,7	105,3±1,8	2,45±0,05	73,2±1,30
11 nazorat	A	4,93±1,4	85,9±1,86	2,06±0,04	65,4±1,20
	B	4,83±1,2	84,8±1,81	2,00±0,05	64,7±1,66

Eslatma: A- tekshirishlar boshida; B- tekshirishlar oxirida.

Tajribadagi 10 bosh sigirlardan tug'ilgan buzoqlarning tana vazni o'rtacha 32,4±1,3 kg ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich tana vazni o'rtacha 450-480 kg bo'lgan sigirlar tana massasining 7,2-6,75 foizini tashkil etadi (me'yor 8,0-8,5%). Tug'ilgan 10 bosh buzoqning 4 boshi dispepsiya bilan kasallandi. Kasallangan buzoqlarning barchasi gipotrofik holatda tug'ilganligi aniqlandi.

7. Xulosalar

1. Buzoqlar dispepsiyasini antinatal sabablari sog'indan chiqarilgan bo'g'oz (7-9 oylik) sigirlarni organizmning fiziologik talabini qondirmaydigan ratsionlarda boqish, ularda vitaminlar-minerallar almashinuvining buzilishi, molxonalarda zoogigiyenik qoidalarning talabga javob bermasligi, matsionning yetishmasligi kabi omillar bo'lib hisoblanadi.

2. Gipotrofik buzoqlarda dispepsiya hayotining 2-kunidan boshlanib, ularda holsizlanish, ishtahaning yo'qolishi, doimiy ravishdagi ko'kintir-sarg'ish rangli, qo'lansa hidli, shilimshiq va qon aralash ich ketishi, tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi, ko'z olmasining cho'kishi, teri elastligining pasayishi, burun oynasining quruq bo'lishi va intoksikatsiya belgilari bilan kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norboyev Q.N., Bakirov B.B., Eshburiyev V.M. Yosh hayvonlar yuqumsiz kasalliklarining patologiyasi va terapiyasi. Samarqand, 2006. B 71-76.
2. Сытдыков А., Бурлуцкий И. Болезни молодняка. Справочник. Тошкент. Мехнат. 1999.
3. Eshburiyev V.M. Buzoqlar dispepsiyasini davolashda “Elektrolitli-regidratasion eritma”ni qo‘llash. Zooveterinariya jurnali. №;. 2014, B16-17.
4. Norboyev Q.N., B.Bakirov, V.Eshburiyev «Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari» Samarqand, 2020.
5. Бурлуцкий В. А. и др. Методические указания к выполнению курсовой работы по внутренним незаразным болезням сельскохозяйственных животных / Бурлуцкий В. А., Эленшлегер А. А., Старикова Н. И. и др. -Барнаул: АГАУ, 1998.-343 е.;
6. Ro‘ziqulov N.B. “Yosh hayvonlar va parrandalar terapiyasi” darslik. Toshkent-2021 “Fan ziyosi” nashriyoti. 81-90 bet.
7. Eshburiyev V.M. Buzoqlar neonatal dispepsiyasining klinikasi va gematologik o‘zgarishlar «Zooveterinariya» ilmiy-ommabop jurnali. 2009. №2. B. 16-17.
8. Байматов В.Н., Адамушкин В.Е., Ханнанова А.Ф. Изменение клинико-биохимических показателей у коров при йодной недостаточности // Ветеринария. - Москва, 2006. №8. С. 45-47.
9. Маматов Ш. Бузоқларни парваришлаш // Зооветеринария. - Тошкент, 2008, №9. Б. 14-15.
10. Jimmy L. Howard D. Current Veterinary Therapy. Food Animal Practice assessment of passive immunity. P. 99. 1993.
11. Levchenko V.I., Vlizlo V.V. Metabolism and liver diseases in cows//Ukr. - Aust. Symp. - Lvov, 1996. - P. 108.
12. Pavlata L, Podhorský A, Pechová A, Chomát P. Differences in the occurrence of selenium, copper and zinc deficiencies in dairy cows, calves, heifers and bulls. Vet Med-Czech,12, 2008. P: 390-400.
13. Далакьян В.П., Рахманова Ш.Т. Корма Узбекистана. - Ташкент, 1986. С. 114-129.



**SAMARQAND VETERINARIYA
MEDITSINASI INSTITUTI**

ISSN 2181-1008

DOI 10.26739/2181-1008

ВЕТЕРИНАРИЯ ТИББИЁТИ ВА ЧОРВАЧИЛИК БЮЛЛЕТЕНИ

3 ЖИЛД, 1 СОН

ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА
ТОМ 3, НОМЕР 1

BULLETIN OF VETERINARY AND LIVESTOCK
VOLUME 3, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000